

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04|30.12.2019.Far.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

QAYUMOV FERUZ SOBIR O'G'LI

**GEPATOPROTEKTOR TA'SIRGA EGA BO'LGAN YIG'MA ASOSIDA
QURUQ EKSTRAKT VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHA
YARATISH**

15.00.01 - dori texnologiyasi

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)

Qayumov Feruz Sobir o'g'li

Гепатопротектор та'sirga ega bo'lgan yig'ma asosida quruq ekstrakt va biologik faol qo'shimcha yaratish..... 3

Каюмов Феруз Собир угли

Создание сухого экстракта и биологически активной добавки на основе сбора, обладающего гепатопротекторным действием21

Kayumov Feruz Sobir ugli

Development of dry extract and biological active substance based on composition that has a hepatoprotective effect39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04|30.12.2019.Far.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

QAYUMOV FERUZ SOBIR O'G'LI

**GEPATOPROTEKTOR TA'SIRGA EGA BO'LGAN YIG'MA ASOSIDA
QURUQ EKSTRAKT VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHA
YARATISH**

15.00.01 - dori texnologiyasi

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2021.1.PhD/Far75 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent farmatsevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.pharmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtayev Xakim Raxmanovich
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusova Xolida Mannonovna
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Sotimov Gayrat Baxtiyorovich
texnika fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far. 32.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «21» «iyun» soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38, faks: (+99871) 256-45-04, e-mail: info@pharmi.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent farmatsevtika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «6» «iyun» kuni tarqatildi.
(2024 yil «6» «iyun» dagi 54 raqamli reestr bayonnomasi).



K.S. Rizayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.d.

Y.S. Kariyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, farm.f.d., professor

F.F. Urmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, farm.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra bir yilda dunyoda 2 milliondan ortiq bemorlar jigar xastaliklari sababli vafot etishi ta‘kidlangan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda transport harakatlarining jadallashuvi, katta miqyosda radioizotop, pestisidlarni ishlab chiqarish va qo‘llash, shuningdek neft va maishiy kimyo mahsulotlarining ko‘payishi ekologik holatni keskin yomonlashuviga sabab bo‘lib, jigar bilan bog‘liq kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Shuning uchun gepatoprotektor ta‘sirga ega dorivor o‘simliklarni yetishtirish, tahlil qilish, ular asosida dori vositalar va biologik faol qo‘shimchalarni ishlab chiqish, tibbiyot amaliyotiga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida turli dorivor o‘simliklardan «yashil texnologiya» yordamida ekstraktarni olish, ularni dori vositasi yoki biologik faol qo‘shimcha tarkibiga kiritib, sinergizm hisobiga terapevtik faolligini oshirish hamda nojo‘ya ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada gepatoprotektor xususiyatga ega o‘simliklardan ekstrakt olishda biologik faol moddalarni to‘liq ajralib chiqishini ta‘minlovchi omillarni o‘rganish, turli nisbatlarda ulardan mexanik aralashmalar tayyorlab, substansiya sifatida qo‘llash hamda tibbiyot amaliyotiga tatbiq etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda farmatsevtika sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ishlab chiqarish sanoatini jadal rivojlantirish, mahalliy xomashyolardan oqilona foydalanish, import o‘rnini bosuvchi dori vositalar va biologik faol qo‘shimchalar assortimentini kengaytirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida «Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta‘minlash darajasini 80 foizga yetkazish»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, mahalliy dorivor o‘simliklar asosida eksportbop, sifatli, yuqori biologik samaradorlikga ega dori vositalar hamda BFQ ishlab chiqish, ularning sifat me‘yorlarini xalqaro talablarga muvofiq belgilash, turg‘unligini ta‘minlash, terapevtik faolligi va bezararligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son «Tibbiyot va farmatsevtika ta‘limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 30-dekabrda PQ-4554-son «O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog‘ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son «Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son «2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya izlanishlari bo'yicha qushqo'nmas (*Silybum marianum L.*) o'simligi urug'i, makkajo'xori popugi (*Zea mays L.*), qalampir yalpiz bargidan (*Mentha piperita L.*) turli quruq ekstraktlar, dori shakllari hamda BFQ olish ustida akademik S.I. Iskandarov, X.X. Xolmatov, Sh.Sh. Sagdullayev, X.M.Komilov, F.F. Urmanova kabi mamlakatimiz olimlari tadqiqotlar olib borishgan.

Qushqo'nmas o'simligi tarkibidagi flavonolignanlar tarkibini aniqlash, ular asosidagi dori shakllarini standartlash va tahlil qilish, hamda yangi dori shakllari yaratish ustida xorijlik olimlardan M.Bijak, H.Vagner, F.Nagi, T.Takemoto, P.Tetenyi, Dj.Pepping, V.A.Kurkin, T.A.Sokolskaya, D.V.Rosixin kabi olimlarning amalga oshirgan tadqiqotlari diqqatga sazovor. Bu o'simlik xomashyosidan jigar xastaligini davolash va profilaktikasi yo'nalishida ko'plab dori vositalari va BFQ ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, qushqo'nmas o'simligi mevasidan turli shakllardagi dori vositalarning texnologiyasini yaratish, standartlash, farmakoterpaevtik faolligini aniqlash bo'yicha A.B.Volosueva, M.M.Rijov, T.V.Aleksandrova, E.A.Morina kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari e'tiborga loyiq.

Mazkur dissertatsiya ishi qushqo'nmas o'simligi (*Silybum marianum L.*), makkajo'xori popugi (*Zea mays L.*) va qalampir yalpiz barglaridan (*Mentha piperita L.*) quruq ekstrakt olish, asosiy biologik faol moddalar bo'yicha tahlil qilish, ularning aralashmasi asosida BFQ tarkibini tanlash va texnologiyasini yaratish bo'yicha birinchi ilmiy izlanish hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor o'simlik va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qushqo'nmas (*Silybum marianum L.*) o'simligi urug'i, makkajo'xori popugi (*Zea mays L.*) va qalampir yalpiz barglaridan (*Mentha piperita L.*) quruq ekstraktlar ajratib olish, hamda ular aralashmasi asosida kapsula shaklidagi BFQ tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

qushqo'nmas (*Silybum marianum L.*) urug'lari, makkajo'xori popugi (*Zea mays L.*) va qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglari asosida quruq ekstraktlar aralashmasi uchun muayyan nisbatni tanlash; ekstrakt olish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar, harorat, gidromodul ekstrakt olish usullarining ta'sirini o'rganish;

quruq ekstraktlar aralashmasi kukunining texnologik xossalarini o'rganish va aralashma tarkibidagi BFMLar miqdorini aniqlash;

quruq ekstraktlar aralashmasi asosida olingan «Gepasilimarin» substansiyasi uchun ilmiy asoslangan kapsula tarkibini tanlash va kapsula olishning mo'tadil texnologiyasini ishlab chiqish;

kapsula shaklidagi BFQning sifat me'yorlarini va asosiy biofaol moddalarga nisbatan nazorat qilish usullarini va biofarmatsevtik xususiyatlarini o'rganish;

quruq ekstraktlar aralashmasi va u asosida olingan «Gepasilimarin» kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimchasining saqlanish sharoiti va yaroqlilik muddatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida dorivor o'simliklardan qushqo'nmas (*Silybum marianum L.*) urug'i, makkajo'xori popugi (*Zea mays L.*), qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglari asosida olingan quruq ekstraktlar hamda «Gepasilimarin» biologik faol qo'shimchasi olingan.

Tadqiqotning predmeti gepatoprotektor ta'sirga ega bo'lgan yig'ma asosida quruq ekstrakt va kapsula shaklidagi BFQ texnologiyasi, sifat va miqdoriy tahlil usullarini ishlab chiqish va tegishli me'yoriy hujjatlarni tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotda zamonaviy texnologik, fiziko-kimyoviy (spektroskopik, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, mass-spektrometriya), biofarmatsevtik, farmakologik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qushqo'nmas o'simligi (*Silybum marianum L.*) mevalari, makkajo'xori (*Zea mays L.*) popugi va qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglaridan quruq ekstraktlar olish texnologiyalari ishlab chiqilgan;

olingan 3 xil quruq ekstraktlarning tashqi ko'rinishi, chinligi, og'ir metallar miqdori, quritilganda yo'qotilgan og'irlik va mikrobiologik tozaligi kabi sifat ko'rsatkichlari aniqlanib, amaldagi me'yoriy hujjatlarda keltirilgan talablarga muvofiqligi isbotlangan;

quruq ekstraktlar tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi miqdori rutinga va lyuteoninga nisbatan spektroskopiya, flavolignanlar yig'indisi miqdori esa silimaringa nisbatan yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlangan;

ushbu quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibida jigar faoliyatini rag'batlantiruvchi aminokislotalar (glyutamin kislotasi, asparagin kislotasi), suvda eruvchi vitaminlar (B kompleks vitaminlari, C vitamini) hamda makro- va mikroelementlar mavjudligi isbotlangan;

ushbu quruq ekstraktlar aralashmasining texnologik xossalarini aniqlash natijasida kapsula shaklidagi «Gepasilimarin» biologik faol qo'shimcha tarkibi tanlangan va texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qushqo'nmas mevalari, makkajo'xori popugi va qalampir yalpiz barglaridan olingan quruq ekstraktlar aralashmasi hamda uning asosida ishlab chiqilgan kapsula shaklidagi BFQ turg'unligi aniqlangan hamda yaroqlilik muddatlari asoslangan;

olingan quruq ekstraktlar aralashmasining gepatoprotektor hamda safro haydovchi spetsifik farmakologik faolligi solishtirma preparat «Legalon»dan kam emasligi isbotlangan;

«Gepasilimarin» kapsulalari uchun biologik samaradorligini belgilovchi «Erish» testini o'tkazish sharoitlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi zamonaviy texnologik asbob-uskunalaridan foydalanilganligi, tahlillarda fizik, fiziko-kimyoviy usullar ishlatilganligi va natijalarni qayta ishlashda statistik usullar qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati madaniylashtirilgan mahalliy o'simliklar xomashyolaridan (qushqo'nmas mevalari, makkajo'xori popugi va qalampir yalpiz barglaridan) quruq ekstraktlar olishning mo'tadil sharoitlari belgilanganligi hamda ular aralashmasi asosida kapsula shaklidagi «Gepasilimarin» biologik faol qo'shimcha yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan «Gepasilimarin» BFQ uchun me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Bu esa ushbu turdagi biologik faol qo'shimchani sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi mahalliy ozuqa qo'shimchalarini assortimentini kengaytirishga hamda xorijdan import qilinayotganlarining hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gepatoprotektor ta'sirga ega bo'lgan yig'ma asosida quruq ekstrakt va biologik faol qo'shimcha yaratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

«Gepatoprotektiv va xoleretik ta'sirga ega qattiq dori shaklidagi vosita»ga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modeli patenti olingan (№FAP 02150, 02.03.2022 y). Natijada qushqo'nmas mevalari, makkajo'xori popugi va qalampir yalpiz barglaridan olingan quruq ekstraktlar aralashmasi asosida jigar faoliyatini rag'batlantiruvchi kapsulani olish imkonini bergan;

«Gepasilimarin» biologik faol qo'shimcha uchun Texnik shartlar (Ts 02026972-003:2022) hamda uni ishlab chiqarish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma (TI 02026972-003:2022) O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan. Natijada kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimchani sanoat miqyosida ishlab chiqarish imkonini bergan;

o'tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida qushqo'nmas mevalari, makkajo'xori popugi va qalampir yalpiz barglaridan olingan quruq ekstraktlar aralashmasining spetsifik farmakologik faolligi hamda o'tkir zaharli emasligi isbotlangan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada ishonchli gepatoprotektor va safro haydovchi faollikga ega bezarar BFQ ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Gepatoprotektor ta'sirga ega dorivor o'simliklardan biofaol moddalarni ajratib olishning zamonaviy texnologiyalari»** deb nomlanib mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Unda gepatoprotektor ta'sirga ega dorivor o'simliklar asosida ishlab chiqiladigan preparatlar yaratishning zamonaviy texnologiyalari, jumladan, gepatoprotektor ta'sirga ega dorivor o'simliklardan biofaol moddalarni (BFM) ajratib olishning zamonaviy texnologiyalari; gepatoprotektor ta'sirga ega bo'lgan o'simliklar asosidagi dori vositalari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini bugungi holati; farmatsevtika sanoatida ekstraksiya jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillar va dorivor o'simlik xomashyosidan olingan kapsula shaklidagi dori vositalarining tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan.

«Tadqiqotni olib borishda foydalanilgan usullar, jihozlar» deb nomlangan 2-bobida esa gepatoprotektor ta'sirga ega o'simliklardan quruq ekstraktlar aralashmasini va kapsula shakldagi BFQ olishda foydalanilgan xomashyo va materiallar, ishlatiladigan asbob-uskunalar ta'rifi va tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Gepatoprotektor ta'sirga ega o'simliklar aralashmasi asosida quruq ekstrakt olish texnologiyasini ishlab chiqish»** deb atalgan bo'limda qushqo'nmas osimligi urug'i, makkajo'xori popugi va qalampir yalpiz barglari yig'masidan quruq ekstrakt olish borasida tadqiqotlar keltirilgan. Turli maydalikdagi, turli usullar bilan ekstraksiya amalga oshirilganda ta'sir etuvchi moddalar miqdori (silimarin) va flavonoidlar miqdori talab darajasida emasligini hisobga olib hamda uch xil o'simlikdan biofaol moddalarni ajratishda turli konsentratsiyali ekstragentlar qo'lanilgani uchun o'simliklar yig'masidan quruq ekstrakt olishdan voz kechildi.

Dorivor o'simliklardan qushqo'nmas (*Silybum marianum L.*) o'simligi urug'i, makkajo'xori (*Zea mays L.*) popugi, qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglari tanlab olinib ularning har biridan quruq ekstraktlar olish usuli ishlab chiqildi.

***Silybum marianum* L. urugʻidan quruq ekstrakt olish texnologiyasi.** Quruq ekstrakt olish uchun qushqoʻnmas oʻsimligi mevasi ikki bosqichda yogʻsizlantirildi. Dastlab sovuq presslash amalga oshirildi, keyin qolgan moy esa ekstraksiya benzin bilan ikki marta ekstraksiya qilib ajratildi. Yogʻsizlantirilgan kunjara quritish javonida 105±5°C haroratda quritildi.

Matseratsiya usulida ekstrakt olish uchun turli konsentratsiyalarda 60, 70, 80 va 96 % etanol eritmalari ishlatildi. Moysizlantirilgan qushqoʻnmas oʻsimlik urugʻlarining turli maydalik darajasidan xomashyoni maydalash 2 mm dan 5 mm gacha moʻtadilligi aniqlandi. Ekstraksiya jarayoni davomiyligi 24 soatdan 72 soatgachani tashkil etdi. Xomashyo va erituvchi nisbatlari 1:5; 1:10; 1:15; 1:20 va 1:25 nisbatlarda oʻrganilib eng maqbul nisbat 1:20 tanlab olindi. Olingan natijalarga koʻra matseratsiya usulida moʻtadil sharoit: xomashyo va ekstragent nisbati 1:20, xomashyoning maydalik darajasi 2-5 mm, erituvchi konsentratsiyasi 80%, ekstraksiyaning davomiyligi 72 soatni, silimarin miqdori 1,37 mg/g (36%ni) tashkil etdi.

Perkolyatsiya usulida olingan quruq ekstrakt ham erituvchi konsentratsiyasi 80%, qushqoʻnmas mevalarining maydalik darajasi 2-5 mm, ekstraksiyaning davomiyligi 18 soat (gidromodul 1:20), quruq ekstrakt dagi silimarin miqdori 1,82 mg/g (47%) ekanligi maʼlum boʻldi.


Ultratovushli ekstraksiya usuli yordamida quruq ekstrakt olish texnologiyasi. Yogʻsizlantirilgan qushqoʻnmas urugʻidan 2 g tortib olinib, ekstragentdan (tozalangan suv, 70% li etanol, 80 % li etanol, 96% li etanol) 10 ml (gidromodul 1:5) olinib ultratovushli ekstraktorda (60 Hz, harorat 40°C 15 daqiqa, 30 daqiqa va 1 soatga) joylashtirildi. Olingan ekstraktlar 15 daqiqa davomida daqiqasiga 7000 aylanishlar boʻlgan sentrifugadan oʻtkazildi va supernatant ajratildi. Soʻngra 4 qavatli dokada filtrlendi (1-jadval).

1-jadval

Ultratovushli ekstraksiyada tajriba davomiyligini ekstraktiv moddalar unumi va silimarin miqdoriga taʼsiri (60 Hz, harorat 40°C)

№	Yogʻsizlantirilgan urugʻ miqdori, g	Ekstragent turi	Ekstragent massasi, ml	Ultratovushli ekstraksiya vaqti, min	Ekstraktiv moddalar chiqish unumi, % da	Silimarin miqdori, mg da
1.	2	tozalangan suv	10	15	7.23	1,21
2.		tozalangan suv		30	8.32	1,32
3.		tozalangan suv		60	11.29	1,58
4.		70% li etanol		15	9.65	1,36
5.		70% li etanol		30	11.12	1,72
6.		70% li etanol		60	12.45	2,95
7.		80% li etanol		15	10.27	1,54
8.		80% li etanol		30	13.59	2,60
9.		80% li etanol		60	17.73	3,28
10.		96% li etanol		15	12.22	1,62
11.		96% li etanol		30	14.47	2,80
12.		96% li etanol		60	18.11	3,75

Ekstraksiyalashda ishlatilgan xomashyo massasi, ekstragent turi va og'irligi, ekstraksiyalash usuli va vaqti 1-jadvalda keltirilgan. Tozalangan suv yordamida ekstraksiya qilinganda ekstraksiya qilish vaqti 15 daqiqadan 30 daqiqaga ortib borishi bilan olingan ekstraktdagi silimarin miqdorining chiqishi 1,58 mg/g ga ortgan. Agar ekstragent sifatida 70% li etanol ishlatilsa xuddi shunday sharoitda silimarin miqdori 1,54dan 2,95 mg/g gacha ortgan. Ekstraksiya jarayoni 80% li spirtida 15 daqiqadan 60 daqiqagacha o'zgarganida ekstraktdagi silimarin miqdori 3,28 mg/g (86%) ga yetishi kuzatilgan. Ekstraktiv moddalarning chiqish unumi 17,73% ga yetgan. Hosil bo'lgan quruq ekstrakt organoleptik va tashqi ko'rinishi bo'yicha baholandi. Quruq ekstrakt rangi och jigarrangli, achchiq ta'mli, o'ziga xos hidli, gigroskopik kukun. Olib borilgan usulda ekstrakt olishning texnologik sxemasi taklif etildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Qushqo'nmas o'simligi urug'laridan quruq ekstrakt olishning texnologik sxemasi

Silybum marianum L. o'simligidan olingan quruq ekstraktning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari 2-jadvalda keltirilgan. Qushqo'nmas o'simligi quruq ekstrakti sochiluvchanligi ($3.22 \cdot 10^{-3}$ kg/s), tabiiy og'ish burchagi (52,47 gradus), sochiluvchan zichligi (359,12 kg/m³), zichlanish koeffitsienti (4.06) va qoldiq namligi (4.3 %) aniqlandi.

Olingan natijalarga ko'ra qushqo'nmas o'simligi asosida olingan quruq ekstrakt eritmasining pH soni o'rtacha 4.96 ga, quruq qoldiq ko'rsatkichi o'rtacha olganda 4.26 % teng ekanligi va quruq qoldiq tarkibida og'ir metallarning miqdori 0,0024 % ni ko'rsatdi. Quruq ekstraktning mikrobiologik tozaligi baholandi.

Makkajo'xori popugidan quruq ekstrakt ajratib olish jarayoni. Bu xomashyoni ekstraksiya qilish uchun erituvchi sifatida tozalangan suv, 40%-70% li etil spirti ishlatildi. Olingan natijalarga ko'ra 40% li etanol tanlandi (xomashyoning maydalik darajasi 2-5 mm). Ajratuvchi va xomashyo nisbati 1:5; 1:10; 1:15; 1:20 va 1:25 nisbatlarda o'rganilib eng optimal nisbat sifatida 1:20 tanlandi. Jarayonda ekstraktiv moddalarning unumi 34,12 % ni flavonoidlar yig'indisi esa 3,49% ni tashkil etdi. Ekstraksiya jarayoni harorat 30-40°C oralig'ida amalga oshirilish maqbul deb topildi. Ekstraksiya jarayonining davomiyligi 16 soatni tashkil etdi.

2-jadval

Qushqo'nmas o'simligi quruq ekstraktning fizik, kimyoviy va texnologik xossalari aniqlash natijalari

№	O'rganilgan ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	Olingan natijalar
1.	Tashqi ko'rinishi	Vizual	och jigarrangli, o'ziga xos hidli, achchiq ta'mli gigroskopik kukun
2.	Zarrachalar o'lchami	mm	0,18 – 0,42
3.	Saralanish tarkib: +2000 -2000+1000 -1000 +500 -500 +250 -250 +125 -125	mkm, %	3,15 17,45 35,92 22,92 4,3 1,42
4.	Sochiluvchanlik	kg/s 10 ⁻³	3.22
5.	Tabiiy og'ish burchagi	grad.	52.47
6.	Sochiluvchan zichlik	kg/m ³	359.12
7.	Zichlanish koeffitsiyenti	K	4.06
8.	Qoldiq namlik	%	4.3

Makkajo'xori popugidan quruq ekstrakt ajratib olish uchun 1 kg 2-5 mm o'lchamdagi xomashyo havoda quritilib, tarozi yordamida aniq tortilgan tortma «KD-2KY» markadagi ekstraktorga joylandi. Uning ustidan oynasimon yuza hosil

bo'lgunga qadar 70 % li etil spirti quyildi, hamda idish mahkam germetik qilib berkitildi, so'ngra 16 soatga saqlab qo'yildi. Ekstraksiyalash jarayoni o'z navbatida xona haroratida amalga oshirildi. Vaqt o'tgandan keyin dastlabki ajratma idishga quyib olindi. Ekstraktorga yana oynasimon yuza hosil bo'lgunga qadar erituvchidan quyildi. 16 soat vaqt o'tkandan so'ng ajratma ajratib olindi. Ushbu jarayonlar uchinchi marotaba ham takrorlandi (ekstragentning umumiy sarfi 20 l gacha). Hamda olingan har uch ajratmalar idishga yig'ib olingan holda mato filtdan o'tkazildi. Filtrat esa rotorli vakuum bug'latkich apparatida bug'latildi. Hosil bo'lgan quyuq ajratmani quritish shkafida amalga oshirildi. Olingan quruq ekstrakt o'ziga xos hidga va ta'mga ega och sariq rangdan jigarrangacha bo'lgan kukunligi aniqlandi. Makkajo'xori popugidan olingan quruq ekstraktning fizik-kimyoviy va texnologik xossalarini 3-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar shuni namoyon qiladiki, o'simlik popugidan olingan quruq ekstraktning quruq qoldiq miqdori o'rtacha olganda 4.13 % ni tashkil etdi, ekstrakt eritmasining pH ko'rsatkich soni o'rtacha olganda 3.7 ga teng ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarga ko'ra makkajo'xori popuklari quruq ekstrakti tarkibida spektroskopik usulda flavonoidlarning 0,36 mg/g borligi (80%) aniqlangan.

3-jadval

Makkajo'xori popugi quruq ekstraktining texnologik xossalarini aniqlash

№	O'rganilgan ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	Olingan natijalar
1.	Tashqi ko'rinishi	vizual	jigarrang, o'ziga xos hid va ta'mga ega bo'lgan gigroskopik kukun
2.	Zarrachalar o'lchami	mm	0,17 – 0,40
3.	Saralanish tarkib: +2000 -2000+1000 -1000 +500 -500 +250 -250 +125 -125	mkm, %	2.85 18.89 34.42 23.15 5.3 1.58
4.	Sochiluvchanlik	kg/s 10 ⁻³	4.23
5.	Tabiiy og'ish burchagi	grad.	57.15
6.	Sochiluvchan zichlik	kg/m ³	322.32
7.	Zichlanish koeffitsiyenti	K	4.14
8.	Qoldiq namlik	%	4.4

Qalampir yalpizdan quruq ekstrakt ajratib olish texnologiyasi. Ekstraksiya jarayonini amalga oshirish uchun xomashyoning maydalik darajasi 2-5 mm qilib olindi. Ajratuvchi sifatida tozalangan suv va 40% dan 70% gacha bo'lgan

konsentratsiyali etil spirtini ishlatish orqali BFMIlarni ajratib olishda 40% li etil spirit olish ma'qulligi aniqlandi.

Qalampir yalpizdan quruq ekstrakt ajratib olish quyidagicha amalga oshirildi: havoda quritilgan 1 kg (2-5 mm o'lchamda) xomashyo tarozi yordamida aniq tortilgan, hamda «KD-2KY» markadagi ekstraktorga qo'yildi. Uning ustidan oynasimon yuza hosil bo'lgunga qadar 40 % li etil spirti solinib idish mahkam germetik qilib berkitildi so'ngra 8 soat saqlandi. Ekstraktsiyalash jarayoni xona haroratida amalga oshirildi. Belgilangan vaqt o'tgandan keyin dastlabki ajratma idishga quyib olindi. Ekstraktorga yana oynasimon yuza hosil bo'lgunga qadar erituvchidan quyildi. 8 soat vaqt o'tkandan so'ng ajratma yana quyib olindi. Ushbu jarayonlar uch marotaba takrorlandi (ekstragentning umumiy miqdori 20 lgacha). Hamda olingan har uchala ajratmalar idishga yig'ib olingan holda mato filtdan o'tkazildi. Filtrat esa rotorli vakuum bug'latkich apparatida bug'latildi. Hosil bo'lgan ekstrakt quritish javonida quritildi. Jarayonning texnologik sxemasi tuzildi. Amalga oshirilgan sharoitda ekstraktiv moddalarning chiqish unumi 22,29% ni tashkil etib, spektroskopik usulda aniqlangan flavonoidlar yig'indisi 2,95 % ni tashkil etdi.

Qalampir yalpiz barglari quruq ekstrakti kukunining sochiluvchanligi ($3.49 \cdot 10^{-3}$ kg/s), tabiiy og'ish burchagi (55,29 gradus), sochiluvchan zichligi (375.24 kg/m^3), zichlanish koeffitsienti (3.98) va qoldiq namligi (5.20 %) aniqlandi (4-jadvalga qarang). Qalampir yalpiz bargi asosida olingan quruq ekstraktning quruq qoldiq miqdori o'rtacha olganda 3.99 % ni tashkil etdi, ekstrakt eritmasining pH ko'rsatkich soni 5.6 ga teng bo'ldi.

4-jadval

Qalampir yalpiz bargining quruq ekstrakti texnologik xossalari natijalari

№	O'rganilgan ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	Olingan natijalar
1.	Tashqi ko'rinishi	vizual	Sarg'ish rangli, o'ziga xos hidli, achchiq ta'mli gigroskopik kukun
2.	Zarrachalar o'lchami	mm	0,14 – 0,38
3.	Saralanish tarkib: +2000 -2000+1000 -1000 +500 -500 +250 -250 +125 -125	mkm, %	3.22 16.45 34.96 23.12 5.27 1.72
4.	Sochiluvchanlik	g/s 10^{-3}	3.49
5.	Tabiiy og'ish burchagi	grad.	55.29
6.	Sochiluvchan zichlik	kg/m ³	375.24
7.	Zichlanish koeffitsiyenti	K	3.98
8.	Qoldiq namlik	%	5.20

Qushqoʻnmas (*Silybum marianum L.*). oʻsimligi urugʻi, makkajoʻxori (*Zea mays L.*) popugi, qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglari asosida olingan quruq ekstraktarning har birini nam tortish xususiyatlari oʻrganib chiqildi. S.A.Nosovitskiy taklif qilgan usul boʻyicha 100 % namlikda qushqoʻnmas (*Silybum marianum L.*) oʻsimligi urugʻidan olingan quruq ekstraktning nam yutishi 1-kuni 2,1% ni, 5-kuni 10,7%ni va 7-kuni 12,0% ni tashkil etadi. Nisbiy namlik kamayishi bilan nam yutish xossalari 7 kun ichida 4,05, 5,7% va 5,9 % ni tashkil etgan. Makkajoʻxori popuglari quruq ekstrakti nam tortishi 100 % nisbiy namlikda 5-7 kun ichida 10,3 % ga yetgan. Qalampir yalpiz barglari quruq ekstraktida bu ancha yuqori boʻlib, namlikni yutish 4-7 kunda 10,36% dan 10,56% ga yetib, 7 kunda esa 12,71% ni tashkil etgan. Olingan natijalar bu uchta ekstraktning nam yutish xossalari yuqori va kukunlar gigroskopikligini koʻrsatdi.

Dissertatsiya ishining 4-bobi «**Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasini tanlash va undan kapsulalar olish texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlanib, unda gepatoprotektor taʼsirga ega aralashma asosida olingan quruq ekstrakt aralashmasi tayyorlash, kapsulalarini texnologik tarkibini moʻtadillashtirish va ishlab chiqish; gepatoprotektor taʼsirga ega yigʻma asosida olingan quruq ekstrakt kapsulalarini «in vitro» tajribalarida erish testlari hamda saqlanish sharoitlari oʻrganilgan.

Gepasilimarin quruq ekstraktlar aralashmasini tanlash va texnologiyasini ishlab chiqish. Ilmiy ishning davomi quruq ekstraktlar aralashmasini tanlashni ilmiy jihatdan asoslash boʻldi. Buning uchun qushqoʻnmas (*Silybum marianum L.*) oʻsimligi urugʻlari, qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) oʻsimligi barglari va makkajoʻxori (*Zea mays L.*) popugidan ekstraksiya usuli yordamida olingan quruq ekstraktlar bir necha tarkibda farmakologlarga tekshiruv uchun berildi (5-jadvalga qarang). Tadqiqotlarda turli nisbatlarda tekshirilgan quruq ekstraktlarning quyidagi tarkibi tanlab olindi.

5-jadval

Turli nisbatlarda tayyorlangan quruq ekstraktlar aralashmasining tarkibi

Quruq ekstraktlar	№1	№2	№3	№4	№5
<i>Silybum marianum L.,g</i>	33	20	40	40	60
<i>Mentha piperita L.,g</i>	33	40	40	20	20
<i>Zea mays L.,g</i>	33	40	20	40	20
Gepatoprotektorlik xossasiga taʼsiri natijalari					
ALT, mkmol/s. l	2.9 $\pm$ 0,3	3.2 $\pm$ 0,3	3.0 $\pm$ 0,3	2,6 $\pm$ 0,3	2.8 $\pm$ 0,3
AST, mkmol/s. l	1.5 $\pm$ 0,1	1.7 $\pm$ 0,1	1.4 $\pm$ 0,1	1,2 $\pm$ 0,1	1.3 $\pm$ 0,1

Jigar faoliyatiga taʼsiri va qondagi biokimyoviy parametrlar asosida farmakologlar №4 tarkib asosida ekstraktlar aralashmasini tayyorlashni tavsiya qilishdi. Gepatoprotektor aralashma tarkibi: qushqoʻnmas (*Silybum marianum L.*) oʻsimligi urugʻi ekstrakti 40 g, qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglari ekstrakti 20 g va makkajoʻxori (*Zea mays L.*) popuklari ekstrakti 40 g ni tashkil etdi. Bu ekstraktlar aralashmasi «**Gepasilimarin**» deb ataldi.

«Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasining sochiluvchanligi ($1,72 \cdot 10^{-3}$ kg/s), tabiiy ogʻish burchagi (58,90 gradus), sochiluvchan zichligi ($308,00 \text{ kg/m}^3$),

zichlanish koeffitsienti (5,30) va qoldiq namligi (6,20 %) aniqlandi (6-jadvalga qarang). Bu qiymatlar dori shakllari olish uchun yaramaydi. Ushbu salbiy natijalar «Gepasilimarin» quruq ekstrakti texnologik xossalarini ijobiy tomonga siljitish va kapsula dori shaklini yaratishda yordamchi moddalardan foydalangan holda nam donadorlash usulini qo‘llashni taqozo etadi.

Quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibidagi BFMLar miqdori YuSSX usuli bilan flavolignanlar 1,32 mg (34,6%), flavonoidlar 0,205 mg(43,2%) ekanligi aniqlandi.

Quruq ekstraktlar aralashmasining element tarkibi yuqori aniqlikda induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida (ISP MS) tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra uning tarkibida makroelementlar sifatida (Na-9032,055 mg/kg, K-7843 mg/kg, Ca 3055,2 mg/kg, P-12861,4 mg/kg, Ba 76,1 mg/kg) namoyon bo‘lsa, mikroelementlar sifatida (Fe-135,8 mg/kg, Cu-7,89 mg/kg, Cr-2,86 mg/kg, Zn-8,197 mg/kg, Co-0,081 mg/kg) mavjudligi aniqlandi. Quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibida og‘ir metallar miqdori (Bi-0,005 mg/kg, Cd- 0,023 mg/kg) talab darajasidaligi kuzatildi.

Quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibida Fe, Cr, Cu, Zn, Co, V ning mavjudligi inson organizmdagi biologik fermentlarning faollanishida va katalitik jarayonlarda ahamiyatga ega bo‘ladi.

«Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasi o‘simlik mevalari borligi uchun uning tarkibidagi oqsil miqdori 17,237% aniqlandi. Oqsilning gidrolizi mahsulotlaridan «Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasida 20 ta almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalar borligi ma‘lum bo‘ldi.

6-jadval

«Gepasilimarin» quruq ekstrakti aralashmasining texnologik xossalarini o‘rganish natijalari

O‘rganilgan ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Olingan natijalar
Tashqi ko‘rinishi		to‘q jigar rangdan jigar ranggacha
Saralanish tarkibi		
+2000	mkm, %	3,15
-2000+1000		20,50
-1000 +500		44,90
-500 +250		25,20
-250 +125		5,0
-125		1,25
Sochiluvchanlik,	g/s	$1,72 \cdot 10^{-3}$
Tabiiy og‘ish burchagi,	grad.	58,90
Sochiluvchan zichlik,	kg/m ³	308,00
Zichlanish koeff	K	5,30
Qoldiq namlik	(70 ⁰ C), %	6,20

Aminokislotalar ichida ekstraktlar aralashmasida eng ko‘p miqdorda valin (0,634258 mg/g) saqlaydi. Keyin esa miqdoriga ko‘ra alanin, treonin, fenilalanin keladi. Ekstrakt tarkibida arginin miqdori 0,471425 mg/g miqdorni tashkil etdi. Ekstraktda glitsin (0,447473 mg/g) va prolin (0,458561 mg/g) borligi uning

kollagen sintezida muhim ro'l o'ynashi mumkinligini ko'rsatadi. Glutamin va asparagin kislota miqdori mos ravishda 1,875966 mg/g va 2,25426 mg/g.

Quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibida suvda eruvchan vitaminlarning bo'lishi ularning qiymatini ancha oshiradi va organizmda tez so'rilishiga ko'makdosh bo'ladi. B guruhdagi vitaminlar sog'lom jigar uchun va moddalar almashinuvida muhimligi va C guruh vitaminlari esa antioksidantlik xossalarini namoyon etishi hisobga olinsa ularning ahamiyati ortadi (7 jadval).

Aralashma tarkibiga 8-jadvalda keltirilgan tarkiblar asosida an'anaviy yordamchi moddalar qo'shish orqali nam donadorlash amalga oshirildi. «Gepasilimarin» aralashmasining texnologik xossalari: saralanish tarkibi, sochiluvchan zichlik, sochiluvchanlik va qoldiq namlik kabi ko'rsatkichlar adabiyotlarda keltirilgan usullar bo'yicha o'rganildi. Quruq ekstraktlar aralashmasidan 5 ta har xil tarkib tayyorlandi (8-jadvalga qarang).

7-jadval

Gepatoprotektor ta'sirga ega bo'lgan quruq ekstraktlar aralashmasi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar tahlili

№	Vitaminlar turi	Vitaminlar nomi	mg/kg
1.	B ₂	Riboflavin	9,47
2.	B ₆	Piridoksin	3,887
3.	B ₃	Niatsin	7,952
4.	C	Askorbin kislotalari	1,456

8-jadval

«Gepasilimarin» kapsulasi uchun muayyan tarkibini tanlash natijalari

O'rganilayotgan tarkiblar	Tarkiblar, g				
	1	2	3	4	5
Gepasilimarin	0.25	0.25	0.25	0.25	0.25
Magniy gidrokarbonat	0.125	-	-	-	-
Laktoza monogidrat	-	0.125	-	-	-
Kalsiy karbonat	-	-	0.125	-	-
MKS	-	-	-	0.125	-
MKS (pH 102)	-	-	-	-	0.125
Kartoshka kraxmali	0.120	0.120	0.120	0.120	0.120
Kalsiy stearat	0.005	0.005	0.005	0.005	0.005
O'rtacha og'irlik	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5

Ulardan 4-tarkib tanlandi. Olingan natijalarga ko'ra bu tarkibda: **«Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasi -0,25 g; mikrokristalik selluloza -0,125 g; kartoshka kraxmali -0,120 g ; kalsiy stearati -0,005 g. O'rtacha massa -0,5 g .**

Ushbu tarkibda olingan «Gepasilimarin» granularining texnologik xossalari tekshirib ko'rildi (9-jadval). Jadvalda keltirilgan natijalarga binoan 4-tarkib

bo'yicha tayyorlangan aralashma massasining texnologik xossalari boshqa massalarga nisbatan ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lganligi sababli keyingi izlanishlar uchun tanlab olindi. Tanlangan tarkib asosida kapsulani to'ldirish uchun aralashma massasi tayyorlandi.

9-jadval

«Gepasilimarin» quruq ekstraktlar aralashmasining granulari texnologik xossalari ko'rsatkichlari natijalari

№	O'rganilgan ko'rsatkichlar o'lchov birligi	O'rganilayotgan tarkib				
		1	2	3	4	5
1.	Saralanish tarkib mkm, %					
	+2000	-	-	-	-	-
	-2000+1000	18,2	17,6	19,3	19,8	18,9
	-1000 +500	67,8	69,7	67,9	70,2	68,6
	-500 +250	6,8	6,3	7,2	5,3	7,8
	-250 +125	5,5	3,8	3,9	2,9	2,8
	-125	1,7	2,6	1,7	1,8	1,9
2.	Sochiluvchanlik, g/s	5,79	5,01	5,88	8,23-9	7,01
3.	Sochiluvchan zichlik, kg/m ³	567	523	586	643	601
4.	Tabiiy og'ish burchagi, grad.	35	39	31	41	38
5.	Qoldiq namlik (70 ⁰ C), %	4,1	4,8	4,3	4,2	4,0
6.	Zichlanish koeffitsiyenti, K	5,22	5,24	5,19	5,30	5,27

10-jadval

«Gepasilimarin» kapsulasi uchun kerakli o'lchamli kapsula tanlashni o'rganish natijalari

Kapsula o'lchami	000	00	0	1	2	3	4	5
Kapsula sig'iminin o'rtacha hajmi, sm ³	1.37	0.94	0.68	0.51	0.38	0.31	0.2	0.14
0,5 g massaning egallagan hajmi, %	33.45	68.22	81.22	95.88	>100	>100	>100	>100
Kapsulaning bo'sh hajmi	66.55	31.78	18.78	4.12	-	-	-	-

0,5 g gepasilimarin kapsula massasi kapsula ichida egallagan hajmi bo'yicha kerakli o'lchamdagi kapsulalar tanlandi. Olingan natijalar 10-jadvalda keltirildi. Gepasilimarin kapsulasi uchun tayyorlangan massani og'irligidan kelib chiqib, №0

raqamli kapsulalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi (10- jadvalga qarang).

Yuqoridagi natijalar asosida «Gepasilimarin» kapsulasi olinishining texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

S.A.Nosovitskiy usulida «Gepasilimarin» ekstraktlar aralashmasining nam tortish xossasini tadqiq qilish 100% namlikda ekstraktning nam tortish xossasi yuqoriligini ko'rsatdi. Bunda kukunning nam tortishi 3,2% dan boshlanib 13,9 % gacha oshgan. Namlik 90% bo'lganida (NaCl ning to'yingan eritmasi) bu ko'rsatkich 2,3% dan boshlanib 7,7% gacha o'zgargan.

Kapsula massasini nam yutish xossalarini o'rganish kapsula massasini nam yutish xossalari sezilarli darajada kamayganligini ko'rsatdi. 100% namlikda bu ko'rsatkich 1,45% dan boshlanib 9,13% gacha ortgan. 90% li namlikda esa bu ko'rsatkich 1,24% dan boshlanib 7,7% gacha ortgan. Natijalarda quruq ekstraktlar aralashmasiga nisbatan kapsula massasining nam yutish darajasi kamayganligi kuzatildi.

«Gepasilimarin» kapsulalarining biosamaradorligini aniqlash maqsadida «Erweka DT» turdagi aylanma kajava uskunasi «in vitro» sharoitida erish testi o'rganildi. Bunda erituvchi bo'lgan muhitning hajmi esa 900 ml ni tashkil etdi. Miqdoriy tahlil usulining sezgirligi ham hisobga olindi. Tajriba davomida harorat esa 37°C ± 1°C gradusni tashkil etdi. «Gepasilimarin» kapsulalari tushirilgan muhitdan har safar 5 daqiqa o'tgandan so'ng namuna olinib ta'sir etuvchi BFMning miqdori o'lchab turildi. Erituvchi sifatida aylanuvchi kajavada tozalangan suvdan foydalanilganda BFMning ajralib chiqishi boshqa erituvchilar muhitiga qaraganda ko'proq ajralib chiqishini namoyon etdi. Bundan keyin esa 0.1 m xlorid kislotasi eritmasini muhit sifatida qo'llanganda tozalangan suvga nisbatan biroz kamroq natijalar olindi. 0.1 m natriy gidroksid va 0.1 m natriy tetraborat saqlagan eritmalar muhitida olingan ko'rsatkichlar talabga javob bermasligi namoyon bo'ldi. BFMlarning «Gepasilimarin» kapsulalaridan ajralib chiqish unumi 30 daqiqada mo'tadil hisoblanib, aylanma kajava asbobini daqiqasiga 100 marta aylanishi tanlandi. Muhit sifatida tozalangan suvdan 1000 ml hajmda olinishi keyingi tadqiqotlarda erituvchi sifatida tavsiya etildi.

Kapsulalarning tasvirlanishi, chinligi, kapsulaning o'rtacha og'irligi va undan chetlanish, parchalanishi va erishi baholandi. Kapsulalarnig 30 oy mobaynida saqlanishi natijalari talablarga mos keldi.

«Gepasilimarin» kapsulasi tarkibidagi asosiy BFM miqdori YuSSX usulida aniqlandi. Natijalarga ko'ra kapsuladagi flavolignanlar miqdori 0,57 mg/g (14,96%) va flavonoidlar miqdori esa 0,0627 mg/g (13,22%) ni tashkil etdi.

Tadqiqot davomida tabiiy sharoitda kapsulalarning saqlash sharoiti o'rganildi. Har olti oy vaqtda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari o'rganib borildi. Bunda 2 xil qadoq turida o'rganildi: a) OST-64-2-87-81 turdagi qopqoqli, steklomassa flakonlar; b) TST 64-0516 bo'yicha oziq polimer materialidan plastmassa idishlar.

Ko'rsatilgan qadoqlash materiallarida «Gepasilimarin» kapsulasining sifat va miqdor ko'rsatkichlari 2 yil davomida saqlash mumkinligini ko'rsatdi.

«Gepasilimarin» kapsulalarining suspenziyalari hayvonlar jigar faoliyati ta'siri 180-200 g oq kalamushlarda va safro haydash xossalari 18-22 g oq sichqonlarda Toshkent farmatsevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasida professor o'qituvchilari tomonidan (dotsent R.H.Sultanova, assistent N.Ch.Salimova) tekshirilgan va «O'zmedstandart» korxonasi xodimlari tomonidan amalga oshirildi.

Sichqonlarda 6000 mg/kg gacha dozada og'iz orqali yuborilganda o'lim holati kuzatilmagan. Olingan natijalar «Gepasilimarin» kapsulalarini jigar faoliyatiga va ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi hamda zaharliligi kam bo'lgan BFQ sifatida tavsiya etish mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSALAR

1. Quruq ekstraktlar aralashmasini olish uchun qushqo'nmas o'simligi (*Silybum marianum L.*) urug'lari, makkajo'xori (*Zea mays L.*) popuklari va qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) barglarining har birini ekstraksiya jarayoni o'rganildi va ekstraktlar olish jarayoniga ta'sir etuvchi omillardan ajratuvchi turi, harorat, gidromodul va ekstrakt olish usullari tavsiya etildi.

2. Ekstraktlar aralashmasining sifat ko'rsatkichlari amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida aniqlanib, me'yorlari belgilandi. Shuningdek, ushbu aralashma tarkibida jigar faoliyatini rag'batlantiruvchi aminokislotalardan glyutamin (1,875966 mg/gr) va asparagin kislotalari (2,25426 mg/gr) ko'p miqdorda mavjudligi isbotlandi. Vitaminlardan esa suvda eruvchi B kompleks vitaminlari hamda antioksidantlik xossasiga ega vitamin C borligi belgilandi.

3. Ekstraktlar aralashmasining texnologik xossalari ijobiy emasligi isbotlandi va «Gepasilimarin» kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha tarkibini tanlashda yordamchi moddalardan foydalangan holda, nam donadorlash usulida texnologiya ishlab chiqildi.

4. «Gepasilimarin» kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha texnologiyasi Toshkent farmatsevtika instituti qoshidagi tajriba amaliyot ishlab chiqarish kompleksida sinovdan o'tkazildi. Ushbu biologik faol qo'shimcha uchun Texnik shartlar (Ts 02026972-003:2022) hamda uni ishlab chiqarish bo'yicha texnologik yo'riqnoma (TI 02026972-003:2022) ishlab chiqilib, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlandi.

5. Quruq ekstraktlar aralashmasi hamda kapsula shaklidagi BFQning saqlanish sharoiti ikki xil qadoqlash idishlarida tabiiy eskirish usulida o'rganilib, yaroqlilik muddatlari 2 yil deb belgilandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 04|30.12.2019. FAR.32.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ
ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

КАЮМОВ ФЕРУЗ СОБИР УГЛИ

**СОЗДАНИЕ СУХОГО ЭКСТРАКТА И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНОЙ
ДОБАВКИ НА ОСНОВЕ СБОРА, ОБЛАДАЮЩЕГО
ГЕПАТОПРОТЕКТОРНЫМ ДЕЙСТВИЕМ**

15.00.01 – технология лекарств

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент -2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B.2021.1.PhD/Far75.

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.pharmi.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу: www.ziyo.net.uz.

Научный руководитель:

Тухтаев Хаким Рахманович
доктор фармацевтических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Юнусова Холида Манноновна
доктор фармацевтических наук, профессор

Сотимов Гайрат Бахтиёрович
доктор технических наук, ведущий научный сотрудник

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «21» июня 2024 г в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38, факс: (99871) 256-45-04, e-mail: www.info@pharmi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер 54) по адресу: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «6» июня 2024 года
(Реестр протокола № 54 от «6» июня 2024 года)



К.С. Ризаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.м.н.

Ё.С. Кариева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.н.,
профессор

Ф.Ф. Урманова
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. По данным Всемирной организации здравоохранения более 2 миллионов пациентов во всем мире умирают из-за заболеваний печени. Ускорение движения транспорта в промышленно развитых странах, крупномасштабное производство и применение радиоизотопов, пестицидов, а также увеличение производства продуктов нефтяной и бытовой химии вызывают резкое ухудшение экологической обстановки, приводя к росту заболеваний печени. Это, в свою очередь, приводит к увеличению числа заболеваний печени. Поэтому важное значение приобретает выращивание, анализ лекарственных растений, обладающих гепатопротекторным действием, разработка лекарственных средств и биологически активных добавок (БАД) на их основе и внедрение их в медицинскую практику.

Во всем мире ведутся научные исследования по получению экстрактов различных лекарственных растений по «зеленой технологии», включению их в состав лекарственного средства или биологически активной добавки, повышению их терапевтической активности за счет синергизма и снижению побочных эффектов. В этой связи особое внимание уделяется изучению факторов, обеспечивающих полное высвобождение биологически активных веществ при получении экстрактов из растений, обладающих гепатопротекторными свойствами, приготовлению из них механических смесей в различных пропорциях и применению в качестве субстанции, а также использованию в медицинской практике.

В результате реформ в нашей республике достигаются определенные научные и практические результаты по дальнейшему развитию фармацевтической промышленности, рациональному использованию местного сырья, расширению ассортимента импортозамещающих препаратов и БАД обеспечению населения эффективными, без-опасными и доступными лекарственными средствами. В стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие важные задачи, как «увеличение объемов производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведение уровня обеспеченности местного рынка до 80 процентов»². В связи с этим важное значение приобретает разработка экспортно-ориентированных, качественных, высокобиологически эффективных лекарственных средств и БАД на основе местных лекарственных растений, установление норм их качества в соответствии с международными требованиями, обеспечение стабильности, доказательство их терапевтической активности и безвредности.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализацией задач представленных в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 6 мая 2019 года № ПП-4310 «О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и фармацевтического образования и науки», от 30

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы»

декабря 2019 года № ПП-4554 «О дополнительных мерах по углублению реформ в фармацевтической отрасли Республики Узбекистан», от 10 апреля 2020 года № ПП-4670 «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов», указ президента от 21 января 2022 года УК-55 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022-2026 годах».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики Узбекистан VI «Медицина и фармакология».

